V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

TURAKULOV XAMIDULLO SHAMSIDINOVICH

UCH O‘LCHOVLI TRIKOMI TENGLAMASI UCHUN CHEGARALANMAGAN PARALLELEPIPED KO‘RINISHDAGI SOHADA TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

UDK: 517.956.6

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

TURAKULOV XAMIDULLO SHAMSIDINOVICH

UCH O‘LCHOVLI TRIKOMI TENGLAMASI UCHUN CHEGARALANMAGAN PARALLELEPIPED KO‘RINISHDAGI SOHADA TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.2PhD/FM861 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingiliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http:ik-fizmat.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Djamalov Sirojiddin Zuxriddinovich** fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Taxirov Jozil Ostanovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Kadirkulov Baxtiyor Jalilovich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Milliy universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil « 05 » sentabr soat 17:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (165-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9- uy. Tel.: (+99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 22 » avgust kuni tarqatildi.
(2023-yil « 22 » avgustdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Ma’lumki, fizika, mexanika, kimyo, biofizika, biotexnologiya va ishlab chiqarishdagi ko‘plab ilmiy tadqiqotlar xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasi masalalariga keltiriladi. Shu jumladan, ko‘plab tarmoqlangan sistemalardagi jarayonlar aralash tipdagi tenglamalarni yechishni taqozo etadi. Masalan, aralash tipdagi tenglamalar nazariyasining asosiy tushunchalari matematik fizikaning klassik muammolarini o‘rganishda shakllangan va hozirgi kunda amaliy masalalarni yechishda keng tadbiqini topgan. So‘nggi o‘n yilliklarda xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun nolokal masalalar ko‘pgina mualliflar tomonidan faol o‘rganildi. Trikomi tenglamasi uchun nolokal masalalarni o‘rganish muhimligi, ularning gaz dinamikasi, tovush tezligiga yaqin va tovush tezligidan yuqori bo‘lgan magnit-gidrodinamik jarayonlar, Alfen tezligi va boshqa fizika mexanikaning muammolari bilan aloqadorligi bilan bog‘liqdir.

Nolokal masalalarni o‘rganish jarayonida ularning nolokal shartli teskari masalalar bilan yaqin aloqasi borligi aniqlangan. Ma’lumki matematik fizika tenglamalari uchun teskari masalalarni o‘rganishga qiziqish ularning mexanika, seysmologiya, tibbiy tomografiya, geofizikaning turli bo‘limlarida qo‘llanishining muhimligi bilan bog‘liq, shuningdek qisqa muddatli sunami jarayonlarni tadqiq qilish teskari masalalarni o‘rganishga keladi. Bugungi kunga kelib matematik fizikaning klassik tenglamalari uchun nolokal chegaraviy va teskari masalalar juda yaxshi o‘rganilgan. Shunga qaramasdan, noklassik tenglamalar, xususan Trikomi tenglamasi uchun bunday masalalar kam o‘rganilgan. Bir qancha ilmiy va amaliy sohalarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, nolokal chegaraviy va teskari masalalarini yechish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi deb aytishimiz mumkin.

Mamlakatimizda fundamental fanlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Fan oldida fundamental tadqiqotlarni amaliyotga yaqinlashtirish vazifasi turibdi. Qo‘yilgan masalani hal qilishda noklassik turdagi tenglamalar xususan Trikomi tenglamalari yetakchi rol o‘ynaydi. Matematika fanlarining ustuvor yo‘nalishlari, ya’ni funksional analiz, differensial tenglamalar va matematik fizika shu jumladan dinamik sistemalar nazariyasi amaliy matematika va matematik modellashtirish bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish Matematika institutining asosiy vazifalari va faoliyati hisoblanadi[1].

Mazkur dissertatsiya ishining mavzusi va obyekti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 20 apreldagi PQ- 2909- son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi va 2019 yil 9 iyuldagi

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-4387-son qarori

PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Masalaning o‘rganilganlik darajasi. Xususiy hosilali tenglamalar uchun nolokal chegaraviy masalalar bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar safiga A.V. Bitsadze va A.A. Samariskiyning ilmiy ishlarini keltirish mumkin. Ushbu ishlarda ma’lum sinfdagi elliptik tenglamalar uchun fazoviy nolokal masalar qo‘yilgan va tadqiq qilingan. Ma’lumki, ushbu masalalar o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lmagan spektral masalalar guruxiga kiradi. Ushbu qo‘yilgan masala Bitsadze-Samarskiy masalasi deb nom olgan. Nolokal chegaraviy masalalar nazariyasining turli jabhalariga A.V.Bitsadze, A.A. Samarskiy, A.A. Dezin, V.A. Ilin, M.S. Salohiddinov, T.J. Jo‘rayev, A.I. Kojanov, T.Sh. Kalmenov, M.A. Sadibekov va boshqa ko‘plab olimlarning ishlarida rivojlantirilgan.

Trikomi tenglamasi uchun Dirixle masalasiga o‘xshsash nolokal chegaraviy masalalar birinchi bulib F.I. Franklning gaz dinamikasi sohasiga oid masalalarni yechishda o‘rganilgan. Keyinchalik bunday masalalar Trikomi tenglamasi uchun chegaralangan sohalarda T.Sh. Kalmenov, M.A. Sadibekov, K.B. Sabitov, B.B. Tsibakov va S.Z. Dzhamalovlarning ishlarida Sobolev va Laks fazolarida o‘rganilgan. Malumki nolokal masalalarni tadqiq qilish jarayonida nolokal shartli masalalar va teskari masalalar orasida yaqin munosabat borligi aniqlangan.

Takidlab o‘tamizki, K.B.Sabitov va uning shogirdlari tomonidan spektral analiz usullari yordamida aralash tipdagi model tenglamalar uchun, tekislikda tenglamaning o‘ng tarafini aniqlash bo‘yicha lokal va nolokal shartli teskari masalalar tadqiq qilingan. Ushbu ishlarda masalaning yechimini mavjudligi, yagonaligi va turg‘unligi o‘rganilgan. S.Z. Dzhamalovning ishlarida uch o‘lchamli fazoda chekli sohada aralash tipdagi tenglamalar (xususan Trikomi tenglamasi) uchun nolokal chegaraviy shartli ba’zi teskari masalalar o‘rganilgan. Keyin esa bunday masalalar ko‘p o‘lchamli fazolarda chekli sohalarda S.Z.Dzhamalov, R.R.Ashurovning ishlarida rivojlantirilgan.

Mazkur dissertatsiyada chegaralanmagan sohada uch o‘lchamli Trikomi tenglamasi uchun nolokal chegaraviy shartli masalalarning bir qiymatli yechilishi va silliqligi o‘rganilgan bo‘lib, teskari masalalarnining bir qiymatli yechilishini o‘rganish yuklangan integro-differensial Trikomi tenglamalar sistemasi uchun uchun to’rtburchak sohada nolokal chegaraviy to‘g‘ri masalaga olib kelishga asoslangan yangi usul taklif qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'R FA Matematika intituti "Differensial tenglamalar va ularning tadbiqlari" labaratoriyasining ilmiy-tadqiqot ishlarining rejalashtirilgan mavzusiga va O'R FA matematika instituti F-FA- 2021-424 "Butun va kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechish" ilmiy grantiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohalarda Trikomi tenglamasi uchun nolokal chegaraviy va teskari masalalar nazariyasini qurish va rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun yarimdavriy va davriy chegaraviy masalalarning bir qiymatli umumlashgan yechimga ega ekanligini va silliqligini Sobolev fazolarida tadqiq qilish;

Sobolev fazolarida chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun yarimnolokal va nolokal chegaraviy masalalarning umumlashgan yechimining bir qiymatli yechimga ega ekanligini va silliqligini isbot qilish;

uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada yarimdavriy va davriy chegaraviy shartli teskari masalalarning yechimini yagona va mavjudligini Sobolev fazosida isbot qilish;

chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun yarimnolokal va nolokal cheraviy shartli teskari masalalarning yechimini yagona va mavjudligini Sobolev fazolarida tadqiq qilish;

Tadqiqotning ob'yekti: uch o'lchamli Trikomi tenglamasi, kichik parametrli uchinchi tartibli differensial tenglamalar, qaralayotgan tenglamalar uchun yuklangan integro-differensial tenglamalardan iborat.

Tadqiqotning predmeti: chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun to'g'ri va teskari masalalarni o'rganishdan iborat.

Tasqiqot usullari: Tadqiqot ishida matematik va funksional analiz, matematik fizika, qatorlar va operatorlarning spektral nazariyalaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada yarimdavriy, davriy masalalar yechimining mavjud va yagonaligi Sobolev fazolarida isbotlangan;

Sobolev fazolarida berilgan uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada yarimnolakal va nolokal masalalar yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan;

Trikomi tenglamasi uchun uch o'lchamli parallelepiped ko'rinishdagi sohada yarimdavriy va davriy teskari masalalar yechimlarining Sobolev fazolarida mavjud va yagonaligi isbotlangan;

uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun berilgan sohada aniqlangan nolokal teskari masalalar yechimining mavjud va yagonaligi Sobolev fazosida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: chegaralanmagan parallelepiped ko‘rinishdagi sohada uch o‘lchamli Trikomi tenglamasi uchun davriy va nolokal chegaraviy shartli teskari masalalar takomillashtirilgan, shuningdak taklif qilingan tadqiqot usullari turli hil fizik-kimyoviy, biologik, tibbiy, seysmologik jarayonlarni o‘rganishda qo‘llanilishi mumkum.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: matematik va funksional analiz usullari, differensial tenglamalar va matematik fizika, qatorlar nazariyasi va operatorlarning spektral nazariyasidan foydalangan holda matematik yondashuvlar yordamida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur ishda olingan natijalar aralash tipdagi xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasi va o‘ziga qo’shma bo’lmagan, musbat aniqlangan elliptik operatorlarning spektral nazariyasini rivojlantirishda, xususan aralash tipdagi xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun nolakal va teskari masalalarni umumlashgan yechimlarining yagonaligi, mavjudligi va silliqligini isbotlashda qo‘llanishi mumkin.

Natijalarning amaliy ahamiyati fizik-kimyoviy, biologik, tibbiy, seysmologik jarayonlarni o‘rganishda qo‘llash imkoniyati bilan asoslanadi. Xususan, Trikomi tenglamasi uchun nolokal va teskari masalalarni o‘rganish muhimligi, ularning gaz dinamikasi, tovush tezligiga yaqin va tovush tezligidan yuqori bo‘lgan magnit-gidrodinamik jarayonlar, Alfen tezligi va boshqa fizik-mexanikaviy jarayonlarning qanday ketishi haqida prognozlar qilish va kerakli natijaga erishish uchun jarayon parametrlarini to‘g‘ri tanlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarini joriy etish: chegaralanmagan parallelepiped ko‘rinishidagi sohada uch o‘lchamli Trikomi tenglamasi uchun to‘g‘ri va teskari masalalar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

chegaralanmagan parallelepiped ko‘rinishdagi sohada uch o‘lchamli Trikomi tenglamasi uchun to‘g‘ri va teskari masalalar yechimlaridan № МД-758.2022.1.1 raqamli “Tebranish jarayonlari va to‘yinganlik jarayonlarini o‘rganish uchun kasr dinamikali matematik modellarini ishlab chiqish” nomli xorijiy grand loyihasidan atmasferadagi tuproq sistemasiga radon o‘tkazish jarayonida foydalanilgan (Kamchatka davlat universitetining 2023 yil 2-iyundagi №10-26-sonli ma’lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi radonni atmosfera tuproq sistemasiga ko‘chirish jarayonini va matematik fizikaning differensial tenglamalari uchun chegaraviy masalalarining korrektligini aniqlash imkonini bergan;

chegaralanmagan parallelepiped ko‘rinishdagi sohada uch o‘lchamli Trikomi tenglamasi uchun teskari masalalar yechimlarining yagonaligi va mavjudligini isbotlash usullaridan ОТ-Ф-4-(36+32) raqamli “Matemarik fizika va optimal boshqarish masalalarini yechishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish. Toq tartibli xususiy hosilali tenglamalar uchun noklassik boshlang‘ich va spektral masalalar va ularning tatbiqlari” mavzusidagi fundamental loyihada olingan aprior baholardan uchunchi tartibli integro-differensial tenglamalar oilasi orqali rekurent formulalar yordamida aprior baholar olish yordamida va qisqartirib akslantirishlar usullaridan teskari masalalar yechimlarining yagonaligi va mavjudligini

isbotlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023 yil 6 iyuldagi №04/11-4145-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi differensial tenglamalarga qo‘yilgan teskari masalalar yechimlarining yagonaligi va mavjudligini isbotlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining chop etilganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shu jumladan 10 ta maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktori ilmiy darajasini olish, dissertatsiya himoyasi uchun ko‘rsatilgan ilmiy nashriyotlar ro‘yxatiga kiritilgan, ulardan 4 ta maqola SCOPUS ma’lumotlar bazalarida indekslangan jurnallarda va 6 tasi respublika ilmiy jurnallarida chop qilingan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 109 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi asoslangan, dissertatsiya mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar tahlili berilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Chegaralanmagan parallelepiped ko‘rinishdagi sohada uch o‘lchamli Trikomi tenglamasi uchun to‘g‘ri masalalar**” deb nomlangan birinchi bobida chegaralanmagan parallelepiped ko‘rinishdagi sohada uch o‘lchamli Trikomi tenglamasi uchun davriy va nolokal chegaraviy shartli ba’zi to‘g‘ri masalalarning yechimlarini yagonaligi, mavjudligi va silliqligi o‘rganilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida, asosiy natijalarni olish uchun zarur bo‘lgan funksional analiz nazariyasidagi ba’zi ma’lum faktlar, shu jumladan Gilbert va Banax fazolari, ushbu fazolardagi skalyar ko‘paytma va normalar, xususiy hosilali tenglamalar nazariyasidagi turli tengsizliklar va lemmalar keltirilgan.

Endigi vazifamiz kelgusida qo‘yilgan masalalarni yechish uchun ba’zi funksional fazolar va belgilashlarni kiritishimiz kerak.

Faraz qilaylik

$$G=(-1,1)\times(0,T)\times R=Q\times R=\{(x,t,z),x\in(-1,1),0<t<T<+\infty,z\in R\},$$

chegaralanmagan parallelepiped ko‘rinishdagi soha bo‘lsin.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz

$$\hat{u}(x,t,\lambda)=(2\pi)^{-1/2}\int\limits_{-\infty}^{+\infty}u(x,t,z)e^{-i\lambda z}dz$$

orqali $u(x,t,z)$ funksiyaning z o‘zgaruvchi bo‘yicha Furye almashtirishini va

$$u(x,t,z)=(2\pi)^{-1/2}\int_{-\infty}^{+\infty}\hat{u}(x,t,\lambda)e^{i\lambda z}d\lambda$$

orqali esa teskari Furye almashtirishini belgilaymiz. Endi Furye almashtirishi yordamida $W_2^{l,s}(G)$ fazoni

$$\|u\|^2_{W_2^{l,s}(G)}=(2\pi)^{-1/2}\cdot\int_{-\infty}^{+\infty}(1+|\lambda|^2)^s\cdot\|\hat{u}(x,t,\lambda)\|^2_{W_2^l(Q)}\,d\lambda \qquad \text{(A)}$$

norma yordamida aniqlaymiz, bu yerda $l,s-$ ixtiyoriy musbat butun sonlar. $W_2^l(Q)$ ($l=0$ da $W_2^0(Q)=L_2(Q)$) orqali $(u,\vartheta)_l$ skalyar ko‘paytmali va

$$\|\vartheta\|_l^2=\|\vartheta\|^2_{W_2^l(Q)}=\sum_{|\alpha|\le l}\int_Q\left|D^\alpha\vartheta\right|^2dxdt$$

normali Sobolev fazosini belgilaymiz. Bu yerda $\alpha-$ multiindeks, $D^\alpha-x$ va t o‘zagaruvchilar bo‘yicha umumlashgan hosila tushiniladi.

Ravshanki $W_2^{l,s}(G)$ fazo (A) norma bilan Banax fazosi bo‘ladi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafida chegaralanmagan parallelepiped ko‘rinishdagi sohada uch o‘lchamli Trikomi tenglamasi uchun yarimdavriy va davriy chegaraviy masalalarning umumlashgan yechimining bir qiymatli yechilishi va silliqligi masalasi o‘rganilgan.

Ushbu

$$G=(-1,1)\times(0,T)\times R=Q\times R=\{(x,t,z);x\in(-1,1),0<t<T<+\infty,z\in R\}$$



sohada Trikomi tenglamasini qaraymiz:

$$Lu=xu_{tt}-\Delta u+a(x)u_t+c(x,t)u=f(x,t,z), \qquad (1)$$

bu yerda $\Delta u=u_{xx}+u_{zz}$ — Laplas operatori.

Faraz qilamiz (1) tenglamaning barcha koeffitsientlari Q sohada yetarlicha silliq funksiyalar bo‘lsin.

Yarimdavriy chegaraviy masala. (1) tenglamaning $W_2^2(G)$ fazoda quyidagi chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini toping

$$D_t^p u\big|_{t=0}=D_t^p u\big|_{t=T}, \qquad (2)$$

$$u\big|_{x=-1}=u\big|_{x=1}=0, \qquad (3)$$

bu yerda $p=0,1$ da $D_t^p u=\dfrac{\partial^p u}{\partial t^p}$, $D_t^0 u=u$.

Bundan tashqari $|z|\to\infty$ da $u(x,t,z)$ va $u_z(x,t,z)\to 0$ bo‘lsin va $\overline{Q}$. dagi ixtiyoriy (x,t) da R da z bo‘yicha absolyut integrallanuvchi bo‘lsin. (4)

1-ta’rif. *(1) - (4) masalaning umumlashgan yechimi deb G sohada (1) tenglamani va (2)-(4) shartlarni deyarli hamma joyda qanoatlantiruvchi* $u(x,t,z)\in W_2^2(G)$ *funksiyaga aytiladi.*

1-teorema. *Shunday* μ *musbat son mavjud bo‘lsinki va (1) tenglamaning koeffitsientlari uchun quyidagi shartlar bajarilgan bo‘lsin: barcha* $(x,t)\in\overline{Q}$ *lar uchun quyidagi tengsizliklar* $2a(x)+\mu x\ge\delta_1>0,\ \mu c(x,t)-c_t(x,t)\ge\delta_2>0,$ *bajarilsin, hamda barcha* $x\in[-1,1]$ *larda* $c(x,0)=c(x,T)$ *tenglik o‘rinli bo‘lsin. U holda quyidagi shartni* $f(x,0,z)=f(x,T,z)$ *qanoatlantiruvchi ixtiyoriy* $f\in W_2^{1,3}(G)$ *funksiya uchun* $W_2^{2,3}(G)$ *fazoda (1)-(4) masalaning yagona umumlashgan yechimi mavjud va (1)-(4) masala yechimi uchun quyidagi aprior baholar o‘rinli bo‘ladi:*

I) $\|u\|^2_{W_2^{1,3}(G)}\le c_1\|f\|^2_{W_2^{0,3}(G)}$,

II) $\|u\|^2_{W_2^{2,3}(G)}\le c_2\|f\|^2_{W_2^{1,3}(G)}$.

Kelgusida c_i orqali musbat, noldan farqli, turli o‘zgasmas, sonlarni belgilaymiz.

(1) - (4) masalaning umumlashgan yechimining silliqligi.

Endi (1) - (4) masalaning umumlashgan yechimining $W_2^{m+2,s}(G)$ fazolarida silliqligini o‘rganamiz, bu yerda $m,s-$ butun chekli musbat sonlar.

Quyida soddalik uchun (1) tenglamaning koeffitsientlari $\overline{Q}$ yopiq sohada yetarlicha differensiallanuvchi bo‘lsin deb faraz qilamiz.

2-teorema. *Faraz qilamiz 1-teoremaning barcha shartlari barajarilgan bo‘lsin, bundan tashqari barcha* $(x,t)\in\overline{Q}$ *lar uchun quyidagi* $D_t^q c\big|_{t=0}=D_t^q c\big|_{t=T}$ *tengliklar o‘rinli bo‘lsin. U holda quyidagi shartlarni* $D_t^q f\big|_{t=0}=D_t^q f\big|_{t=T}$, $(q=0,1,2,3,...,m)$ *qanotlantiruvchi ixtiyoriy* $f\in W_2^{m+1,s}(Q)$ *funksiya uchun (1)-(4) masalaning* $W_2^{m+2,s}(G)$ *fazodagi yagona umumlashgan yechimi mavjud bo‘ladi, bu yerda* $m,s-$ *butun chekli musbat sonlar, hamda* $s\ge m+3,\ m=0,1,2,3,...$

$W_2^{m+2,s}(G)$ Sobolev fazosidagi umumlashgan yechimning yagonalik, mavjudlik va silliqlik teoremalari aprior baholashlar, Galyorkin va “$\varepsilon-$ regularizatsiya” usullari orqali isbot qilingan.

Ushbu paragrafida chegaralanmagan parallelepiped ko‘rinishdagi sohada uch o‘lchamli Trikomi tenglamasi uchun davriy chegaraviy masalaning umumlashgan yechimning yagonalik, mavjudlik va silliqligi o‘rganilgan.

Yarimdavriy chegaraviy masalada bo‘lgani kabi davriy chegaraviy masalani ham $W_2^{m+2,s}(G)$ fazoda, umumlashgan yechimning yagonalik, mavjudlik va silliqlik teoremalari aprior baholashlar, Galyorkin va “$\varepsilon-$regularizatsiya” usullari

orqali isbot qilingan. Bu yerda $m, s-$ butun chekli musbat sonlar, bunda $s \geq m+3$, $m = 0,1,2,3,....$

Endi bu bobning uchunchi va to‘rtinchi paragrafida (1) tenglamaning koeffisentlari x va t o’zgaruchilarga bog‘liq deb qaraymiz.

Ushbu bobning uchunchi paragrafida chegaralanmagan parallelepiped ko‘rinishdagi sohada uch o‘lchamli Trikomi tenglamasi uchun yarimnolokal chegaraviy masalaning umumlashgan yechimning yagonalik, mavjudlik va silliqligi o‘rganilgan.

Yarimnolokal chegaraviy masala. (1) tenglamaning $W_2^2(G)$ fazoga tegishli hamda quyidagi chegaraviy

$$\gamma D_t^p u\big|_{t=0} = D_t^p u\big|_{t=T}, \tag{5}$$

$$u\big|_{x=-1} = u\big|_{x=1} = 0, \tag{6}$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,t,z)$ umumlashgan yechimini toping, bu yerda, $\gamma-$ noldan farqli biror musbat son bo‘lib, qiymati quyida aniqlanadi.

Bundan tashqari $|z| \to \infty$ da $u(x,t,z)$ va $u_z(x,t,z) \to 0$ bo‘lsin va $\overline{Q}$ dagi ixtiyoriy (x,t) da R da z bo‘yicha absolyut integrallanuvchi bo‘lsin. (7)

2-ta’rif. *(1), (5)-(7) masalaning $W_2^2(G)$ fazoga umumlashgan yechimi deb G sohada (1) tenglamani hamda (5)-(7) shartlarni deyarli hamma joyda qanoatlantiruvchi $u(x,t,z)$ funksiyaga aytiladi.*

3-teorema. *Faraz qilaylik (1) tenglama koeffitsientlari uchun quyidagi shartlar o‘rinli bo‘lsin; barcha $(x,t) \in \overline{Q}$ lar uchun quyidagi tengsizliklar $2a(x,t) + \mu x \geq \delta_1 > 0$, $\mu c(x,t) - c_t(x,t) \geq \delta_2 > 0$, bajarilsin, hamda barcha $x \in [-1,1]$ larda $a(x,0) = a(x,T)$, $c(x,0) = c(x,T)$ tenglik o‘rinli bo‘lsin, bu yerda $\mu = \frac{2}{T}\ln|\gamma| > 0$, $|\gamma| > 1$. U holda quyidagi shartni $\gamma \cdot f(x,0,z) = f(x,T,z)$ qanoatlantiruvchi ixtiyoriy $f \in W_2^{1,3}(G)$ funksiya uchun $W_2^{2,3}(G)$ fazoda (1), (5) - (7) masalaning yagona umumlashgan yechimi mavjud va (1), (5) - (7) masala yechimi uchun quyidagi aprior baholar o‘rinli bo‘ladi:*

I) $\|u\|^2_{W_2^{1,3}(G)} \leq c_1 \|f\|^2_{W_2^{0,3}(G)}$,

II) $\|u\|^2_{W_2^{2,3}(G)} \leq c_2 \|f\|^2_{W_2^{1,3}(G)}$.

Endi $W_2^{m+2,s}(G)$ fazoda (1), (5) - (7) masalaning umumlashgan yechimining silliqligini tadqiq qilamiz, bu yerda $s, m-$ butun musbat chekli sonlar. Faraz qilaylik (1) tenglamaning koeffitsientlari yopiq $\overline{Q}$ sohada yetarlicha differensiallanuvchi bo‘lsin.

4-teorema. *Faraz qilaylik 3-teoremaning barcha shartlari bajarilgan bo‘lsin, bundan tashqari barcha $(x,t) \in \overline{Q}$ lar uchun quyidagi $D_t^q a\big|_{t=0} = D_t^q a\big|_{t=T}$, $D_t^q c\big|_{t=0} = D_t^q c\big|_{t=T}$ tengliklar o‘rinli bo‘lsin. U holda quyidagi shartlarni*

$\gamma \cdot D_t^q f\big|_{t=0} = D_t^q f\big|_{t=T}$ $(q = 0,1,2,3,...,m)$ *qanotlantiruvchi ixtiyoriy* $f \in W_2^{m+1,s}(G)$ *funksiya uchun* $W_2^{m+2,s}(G)$, $s \geq m+3, m = 0,1,2,3,...$ *fazoda (1), (5)-(7) masalaning yagona umumlashgan yechimi mavjud bo'ladi.*

$W_2^{m+2,s}(G)$ Sobolev fazosidagi umumlashgan yechimning yagonalik, mavjudlik va silliqlik teoremalari aprior baholar, Galyorkin va "$\varepsilon-$ regularizatsiya" usullari orqali isbot qilingan.

Ushbu bobning to'rtinchi paragrafida chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun nolokal chegaraviy masalaning umumlashgan yechimning yagonalik, mavjudlik va silliqligi o'rganilgan. Uchunchi paragrafda bo'lgani kabi $W_2^{m+2,s}(G)$ fazoda, (bu yerda $m, s-$ butun chekli musbat sonlar, bunda $s \geq m+3$, $m = 0,1,2,3,...$), nolokal chegaraviy masalalarning umumlashgan yechimning bir qiymatli yechilishi isbot qilingan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi "Chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun yarimdavriy va davriy chegaraviy shartli teskari masalalar" deb nomlangan bo'lib, chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun yarimdavriy va davriy chegaraviy shartli teskari masalalarning Adamar ta'rifi bo'yicha korrektligi o'rganilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun yarimdavriy chegaraviy shartli chiziqli teskari masalalarning bir qiymatli yechilishi isbot qilingan.

Ushbu

$$G = (-1,1) \times (0,T) \times R = Q \times R = \{(x,t,z),\ x \in (-1,1), 0 < t < T < +\infty,\ z \in R\}$$

sohada uch o'lchamli Trikomi tenglamasini qaraymiz:

$$Lu = xu_{tt} - \Delta u + a(x)u_t + c(x,t)u = \psi(x,t,z), \tag{8}$$

bu yerda $\Delta u = u_{xx} + u_{zz}$—Laplas operatori, $\psi(x,t,z) = g(x,t,z) + h(x,t) \cdot f(x,t,z)$, $g(x,t,z)$ va $f(x,t,z)$ berilgan funksiyalar, $h(x,t)$ aniqlanishi kerak bo'lgan funksiya.

Chiziqli teskari masala. (8) tenglamani hamda quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi

$$D_t^p u\big|_{t=0} = D_t^p u\big|_{t=T},\ p = 0,1, \tag{9}$$

$$u\big|_{x=-1} = u\big|_{x=1} = 0, \tag{10}$$

Bundan tashqari $|z| \to \infty$ da $u(x,t,z)$ va $u_z(x,t,z) \to 0$ bo'lsin va Q dagi ixtiyoriy (x,t) da R da z bo'yicha absolyut integrallanuvchi bo'lsin (11) hamda,

$$u(x,t,\ell_0) = \varphi_0(x,t), \quad \ell_0 \in R \tag{12}$$

va $U = \left\{(u,h) \middle| u \in W_2^{2,3}(G),\ h \in W_2^2(Q)\right\}$ fazoga tegishli $u(x,t,z)$ ва $h(x,t)$ funksiyalar topilsin.

3-ta'rif. *(8), (9)-(12) masalaning $W_2^2(G)$ fazoda umumlashgan yechimi deb G sohada (8) tenglamani hamda (9)-(12) shartlarni deyarli hamma joyda qanoatlantiruvchi $u(x,t,z)$ funksiyaga aytiladi.*

Faraz qilaylik (8) tenglamaning barcha koeffitsientlari Q sohada yetarlicha silliq funksiya bo'lsin va (8) tenglamaning o'ng qismi hamda berilgan $\varphi_0(x,t)$ funksiyaga nisbatan quyidagi shartlar bajarilgan bo'lsin;

1-shart:

davriylik shartlari: $c(x,0)=c(x,T),\ g(x,0,z)=g(x,T,z),\ f(x,0,z)=f(x,T,z),$

silliqlik: $f(x,t,l_0)=f_0(x,t)\in C_{x,t}^{0,1}(Q),\ |f_0(x,t)|\ge\eta>0;\ f\in W_2^{3,3}(G),\ g\in W_2^{1,3}(G).$

2-shart: $\varphi_0(x,t)\in W_2^3(Q),\ D_t^q\varphi_0\big|_{t=0}=D_t^q\varphi_0\big|_{t=T},\ q=0,1,2,\ \varphi_0\big|_{x=-1}=\varphi_0\big|_{x=1}=0.$

5-teorema. *(8) tenglamaning koeffitsientlari uchun yuqorida keltirilgan 1- va 2- shartlar bajarilgan bo'lsin, bundan tashqari shunday musbat μ son maavjud bo'lsinki barcha $(x,t)\in\overline{Q}$ larda quyidagi tengsizliklar $2a(x)+\mu x>B_1>0,$ $\mu c(x,t)-c_t(x,t)\ge b_2>0,$ o'rinli bo'lsin, va shunday σ musbat kichik son mavjud bulsinki, $b_0=\min\{B_1,\mu,b_2\}$ uchun $b_0-14\mu^2\sigma^{-1}\ge\delta>0,$ $q=M\|f\|^2_{W_2^{3,3}(G)}<1,$ baholar o'rinli bo'lsin, bu yerda $(M=\sigma\cdot m\cdot\delta^{-1}\cdot\eta^{-2}\cdot\|f_0\|^2_{C_{x,t}^{0,1}(Q)}-$ musbat o'zgarmas son, $m=\frac{5}{\pi}c_1c_2c_3,\ c_1=\int\limits_{-\infty}^{+\infty}\frac{\lambda^4 d\lambda}{(1+|\lambda|^2)^3}<+\infty,\ c_i(i=2,3)-$ Sobolevning joylashtirish haqidagi teoremasidagi koeffitsientlar).*

U holda (8), (9)-(12) teskari masala $U=\{(u,h)\,|\,u\in W_2^{2,3}(G),\ h\in W_2^2(Q)\}$ sinfda yagona yechimga ega bo'ladi.

5-teorema "ε -regularizatsiya" aprior baholar, ketma-ket yaqinlashishlar va qisqartirib akslantirishlar usullari, hamda Furye almashtirishi yordamida isbot qilingan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida birinchi paragrafda bo'lgani kabi chegaralanmagan parallelepiped ko'rnishdagi sohada uch o'lchovli Trikomi tenglamasi uchun davriy shartli teskari masalaning umumlashgan yechimning bir qiymatli yechilishi isbot qilingan.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi "Chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun nolokal chegaraviy shartli teskari masalalar" deb nomlangan bo'lib, bu bobda chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun yarimnolokal va nolokal chegaraviy shartli teskari masalalarning Adamar ta'rifi bo'yicha korrektligi o'rganilgan.

Bu bobda (8) tenglamaning koefisentlari x va t o'zgaruchilarga bog'liq deb qaraymiz.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun yarimnolokal

chegaraviy shartli chiziqli teskari masalalarning bir qiymatli yechilishi isbot qilingan.

Masalaning qo'yilishi. (8) tenglamani hamda quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi

$$\gamma D_t^p u\big|_{t=0} = D_t^p u\big|_{t=T}, \tag{13}$$

$$u\big|_{x=-1} = u\big|_{x=1} = 0 \tag{14}$$

bu yerda $p = 0,1$, $\gamma -$ biror noldan farqli son bo'lib, qiymati quyida aniqlanadi.

Bundan tashqari $|z| \to \infty$ da $u(x,t,z)$ va $u_z(x,t,z) \to 0$ bo'lsin va Q dagi ixtiyoriy (x,t) da R da z bo'yicha absolyut integrallanuvchi bo'lsin, (15)

hamda,

$$u(x,t,\ell_0) = \varphi_0(x,t), \quad \ell_0 \in R \tag{16}$$

va $U = \left\{(u,h) \middle| u \in W_2^{2,3}(G),\ h \in W_2^2(Q)\right\}$ fazoga tegishli $u(x,t,z)$ ва $h(x,t)$ funksiyalar topilsin.

Bu yerda $W_2^{2,3}(G)$ fazo birinchi bobning § 1.1 da aniqlangan.

4-ta'rif. *(8), (13)-(16) masalaning umumlashgan yechimi deb G sohada (8) tenglamani hamda (13)-(16) shartlarni deyarli hamma joyda qanoatlantiruvchi $u(x,t,z) \in U$ funksiyaga aytiladi.*

Faraz qilaylik (8) tenglamaning barcha koeffitsientlari Q sohada yetarlicha silliq funksiya bo'lsin va (8) tenglamaning o'ng qismi hamda berilgan $\varphi_0(x,t)$ funksiyaga nisbatan quyidagi shartlar bajarilgan bo'lsin;

3-shart:

davriylik: $a(x,0) = a(x,T);\ c(x,0) = c(x,T);$

nolokal shartlar: $\gamma \cdot g(x,0,z) = g(x,T,z), \quad \gamma \cdot f(x,0,z) = f(x,T,z);$

silliqlik:

$$f(x,t,l_0) = f_0(x,t) \in C_{x,t}^{0,1}(Q),\ |f_0(x,t)| \geq \eta > 0;\ f \in W_2^{3,3}(G),\ g \in W_2^{1,3}(G).$$

4-shart:

$$\varphi_0(x,t) \in W_2^3(Q),\ \gamma D_t^q \varphi_0\big|_{t=0} = D_t^q \varphi_0\big|_{t=T},\ q = 0,1,2,\ \varphi_0\big|_{x=-1} = \varphi_0\big|_{x=1} = 0.$$

6-teorema. *(8) tenglamaning koeffitsientlari uchun 3- va 4- shartlar bajarilgan bo'lsin; bundan tashqari barcha $(x,t) \in \overline{Q}$ lar uchun quyidagi tengsizliklar $2a(x,t) + \mu x \geq B_1 > 0, \quad \mu c(x,t) - c_t(x,t) \geq b_2 > 0$ o'rinli bo'lsin, bu yerda $\mu = \frac{2}{T}\ln|\gamma| > 0,\ |\gamma| > 1,$ va faraz qilaylik shunday musbat σ son (Koshi tengsizligi koeffitsienti) mavjud bo'lsinki, $b_0 = \min\{B_1, \mu, b_2\}$ uchun $b_0 - 14\mu^2\sigma^{-1} \geq \delta > 0, \quad q = M\|f\|^2_{W_2^{3,3}(G)} < 1$ baholashlar o'rinli bo'lsin, (bu yerda $M = \sigma \cdot m \cdot \delta^{-1} \cdot \eta^{-2} \cdot \|f_0\|^2_{C_{x,t}^{0,1}(Q)} -$ musbat o'zgarmas son, $m = 5\pi^{-1}c_1c_2c_3,$*

$c_1 = \int\limits_{-\infty}^{+\infty} \frac{\lambda^4 d\lambda}{(1+|\lambda|^2)^3} < +\infty$, $c_i (i = 2,3)$ – *Sobolevning joylashtirish haqidagi teoremasidagi koeffitsientlar.) U holda (8), (13)-(16) teskari masalani,* $U = \{(u,h) | u \in W_2^{2,3}(G),\ h \in W_2^2(Q)\}$ *sinfda yagona yechimi mavjud bo'ladi.*

6-teorema "ε – regulyarizatsiya", aprior baholar, ketma-ket yaqinlashishlar va qisqartirib akslantirishlar usullari yordamida Furye almashtirishini qo'llab isbot qilingan.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun nolokal chegaraviy shartli chiziqli teskari masalalarning bir qiymatli yechilishi isbot qilingan.

XULOSA

Dissertatsiya ishi uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun davriy va nolokal chegaraviy masalalarni umumlashgan yechimlarining yagonalik, mavjudlik va silliqligi isbotlashga va Trikomi tenglamasi uchun teskari masalalarning Adamar tarifi bo'yicha korrektligini o'rganishga bag'ishlangan.

Xulosa sifatida tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagilarni keltirish mumkin.

1. Uch o'lchamli chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada Trikomi tenglamasi uchun yarimdavriy, davriy, yarimnolokal va nolokal shartli masalalarning Sobolev fazolarida yechimi yagonaligi, mavjudligi haqidagi teoremalari isbotlangan. Olingan yechimlarinig $W_2^{m+2,s}(G)$ Sobolev fazolarida silliqlik xossalari tatqiq qilingan, bu yerda m,s – butun chekli musbat sonlar bo'lib, $s \geq m+3$.

2. Sobolev fazolarida uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada yarimdavriy va davriy teskari masalalarning yagonalik, mavjudlik teoremalari isbotlangan.

3. Trikomi tenglamasi uchun chegaralanmagan uch o'lchamli parallelepiped ko'rinishdagi sohada yarimnolokal va nolokal chegaraviy shartli teskari masalalar yechimlarining $W_2^{2,3}(G)$ Sobolev fazosida mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremalar isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya ishida olingan ilmiy natijalardan uch o'lchamli Trikomi tenglamasi uchun chegaralanmagan parallelepiped ko'rinishdagi sohada yarimdavriy, davriy, yarimnolokal va nolokal chegaraviy teskari masalalardan kelgusidagi birinchi tur aralash tipdagi tenglamalar nazariyaning rivojida foydalanish mumkin.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM.86.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ИНСТИТУТЕ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО

ИНСТИТУТ МАТЕМАТИКИ

ТУРАКУЛОВ ХАМИДУЛЛО ШАМСИДДИНОВИЧ

ПРЯМЫЕ И ОБРАТНЫЕ ЗАДАЧИ ДЛЯ ТРЕХМЕРНОГО УРАВНЕНИЯ ТРИКОМИ В ОБЛАСТИ В ВИДЕ НЕОГРАНИЧЕННОГО ПАРАЛЛЕЛЕПИПЕДА

01.01.02 – Дифференциальные уравнения

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, Науки и Инноваций Республики Узбекистан за № B2023.2PhD/FM861.

Диссертация выполнена в Институте математики.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице по адресу http://fti-kengash.uz/и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziyonet.uz.

Научный консультант:	**Джамалов Сирожиддин Зухриддинович** доктор физико-математических наук, доцент
Официальные оппоненты:	**Тахиров Жозил Останович** доктор физико-математических наук, профессор
	Кадиркулов Бахтиёр Жалилович доктор физико-математических наук, доцент
Ведущая организация:	**Национальный университет Узбекистана.**

Защита диссертации состоится «05» сентябрь 2023 г. в 17:00 часов на заседании научного совета DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 при Институте Математики имени В. И. Романовского. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9. Тел.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Математики имени В. И. Романовского (зарегистрирована за № 165). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9. Тел.: (+99871) 207-91-40).

Автореферат диссертации разослан «22» август 2023 г.
(протокол рассылки № 2 от «22» август 2023 г.).

У.А. Розиков
Председатель Научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., профессор

Ж.К. Адашев
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., старший
научный сотрудник

А.А. Азамов
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., академик

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии(PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Очевидно, что многие задачи физики, механики, химии, биофизики, биотехнологии и производства приводятся к задачам исследования краевых задач для уравнений смешанного типа (в частности для уравнения Трикоми). В том числе многие ветвящиеся системные процессы нуждаются в решении задач смешанного типа. Основные понятия теории уравнений смешанного типа сформировались при исследовании классических задач математической физики и к настоящему времени нашли широкое применение при решении практических задач. Однако современные проблемы естествознания приводят к необходимости качественной постановки и исследования новых задач, ярким примером которых является класс нелокальных задач. В последние десятилетия нелокальные задачи для дифференциальных уравнений в частных производных активно изучаются многими математиками, опубликован ряд работ, где указано на важность изучения нелокальных задач для уравнения Трикоми, учитывая их связь с вопросами трансзвуковой газовой динамики, магнитогидродинамическими течениями с переходом через скорость звука и скорость Альфена и другими проблемами физико-механики.

В процессе исследования нелокальных задач была выявлена их тесная взаимосвязь с нелокальными условиями и обратными задачами. Отметим, что интерес к исследованию обратных задач для уравнения математической физики обусловлен важностью их приложений в различных разделах механики, сейсмологии, медицинской томографии, геофизики, также обратные задачи возникают при изучении краткосрочного прогноза цунами, сейсмики и в задачах томографии. К настоящему времени достаточно хорошо изучены нелокальные краевые и обратные задачи для классических уравнений математической физики. На данном этапе такие задачи являются менее изученными для уравнения Трикоми. В связи с широкой востребованностью решения нелокальных краевых и обратных задач в ряде областей повседневной научной и практической жизни их решение представляет собой одно из приоритетных направлений.

В нашей стране особое внимание уделяется фундаментальным наукам. Перед наукой ставится задача сближения фундаментальных исследований с практикой. В решении поставленной задачи теория уравнений неклассического рода, в частности уравнений смешанного типа, призвана играть важную роль. Научные исследования на уровне международных стандартов по приоритетным направлениям математических наук, а именно функциональному анализу, дифференциальным уравнениям и математической физике, включая теорию динамических систем, а также по прикладной математике и математическому моделированию являются основными задачами и направлениями деятельности Института математики.

Тема и объект исследования настоящей диссертационной работы соответствуют поручениям, обозначенным в Указах Президента Республики

Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О стратегии действия по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № УП-2789 от 17 февраля 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности», № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», №ПП-4387 от 9 июля 2019 года «О мерах государственной поддержки дальнейшего развития математического образования и науки, а также коренного совершенствования деятельности Института математики имени В.И.Романовского Академии наук Республики Узбекистан», и № УП-4708 от 7 мая 2020 года «О повышении качества обучения в сфере математики и о мерах развития научных исследований», также настоящее диссертационное исследование в определенной мере служит реализации задач, определенных в постановлениях и других нормативных правовых актах[2], касающихся данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан IV. «Математика, механика и информатика».

Степень изученности проблемы.

К числу первых исследований нелокальных краевых задач для уравнений в частных производных можно отнести статью А.В. Бицадзе и А.А. Самарского. В этой работе были поставлены и исследованы пространственно-нелокальные задачи для определенного класса эллиптических уравнений, которые привели к изучению несамосопряженных спектральных задач. Впоследствии эта сформулированная задача была названа задачей Бицадзе–Самарского. Различным аспектам теории нелокальных краевых задач посвящены работы А.В.Бицадзе, А.А.Самарского, А.А.Дезина, В.А.Ильина, М.С.Салахитдинова, Е..И.Моисеева, Т.Д.Джураева, А.И.Кожанова, Т.Ш.Кальменова, М.А.Садыбекова и многих других ученых.

